

XIVA XONLIGIDA MAHALLIY AMALDORLARNING VAZIFALARI VA FUQAROLARNI QABUL QILISH TARTIBLARI

Polvonov J.A., *tadqiqotchi,*

(*Toshkent “Temurbeklar maktabi” harbiy-akademik litseyi*)

Xiva xonligida Buxoro amirligi va Qo‘qon xonligidan farqli ravishda doimiy faoliyat ko‘rsatuvchi Kengash amal qilgan. Bu Kengash (devon) ma‘lum mansab va unvon egalaridan, chunonchi: inoq, mehtar, naqib, qushbegi, devonbegi, shayxulislom, mutavalli, mirob, qozi, farmonchi, darg‘a, arbob, miroxo‘r va boshqalardan iborat edi. Eng yuqori lavozimdagi amaldorlar a‘zo bo‘lgan bu Kengashning vakolatlari cheklangan, barcha qarorlar amalda xon tomonidan qabul qilingan bo‘lsada, lekin saroy a‘yonlarining, qabila boshliqlarining, mahalliy hokimlarning davlat boshqaruvidagi o‘rnini e‘tirof etish zarur. Kengash majlisida boshqa amaldorlardan ham ko‘proq mehtar, qushbegi, devonbegi, inoq, shayxulislom va yasavulboshi hal etuvchi ovozga ega edilar. Kengash masalalarini hal etish darajasiga qarab Xon xohishi bilan majlis bo‘lar edi[1].

Xiva xonligi ma‘muriy jihatdan XVI —XVIII asrlarda viloyatlarga, XIX asr oxiri XX asr boshlarida 27 ta ma‘muriy birlikka: undan bittasi —Xiva va uning atrofi bevosita xon va bosh vazirga bo‘ysungan, hokimlar tomonidan boshqarilgan 20 ta (Anbarmanaq, G‘oziobod, Gurlan, Ilonli, Qipchoq, Qilichniyozboy, Qo‘shko‘pir, Qo‘ng‘irot, Ko‘na Urganch, Qiyot, Mang‘it, Pitnak, Darg‘on Ota, Sadvar, Porsu, Toshhovuz, Yangi Urganch, Hazarasp, Xonqa, Xo‘jayli, Shumanay (Yangiqa‘la), Shoxobod) hokimlikka va 2 ta (Beshariq yoki Bog‘ot, Qiyot — Qo‘ng‘irot) noiblik hamda 4 ta turkmanlarga tegishli hududga bo‘lingan. Turkmanlar urug‘ oqsoqollari orqali boshqarilgan bo‘lib, har bir urug‘ ma‘muriy jihatdan qaysidir hokimlikka birlashtirilgan. Tarixiy adabiyotlarda bu ma‘muriy birliklar beklik deb atalgani bilan Xorazmda asosan hokimlik deb yuritilgan. Hokim bu mansabga xon tomonidan tayinlangan bo‘lib, unga faqat barcha masalalarda o‘troq o‘zbek aholisi bo‘ysungan. Hokimlik hududidagi turkman, qozoq, qoraqalpoq aholisi o‘z urug‘ boshliqlari: vakil, katxudo, otaliq va boylar (beklar) tomonidan boshqarilgan. Ular tepasida xon tomonidan tayinlangan beklarbegi turgan. Har qanday katta yer egasi hokimlik lavozimiga tayinlanishi mumkin bo‘lsa, noiblik mansabiga o‘zbeklarning taniqli urug‘ a‘zolarigina tayinlanishi va uning hukmi faqat o‘z urug‘i ustidagina bo‘lishi mumkin edi[2].



Hokimlikdagi qishloqlar, aholi istiqomat qiladigan joylar mahalla, machitqoʻmlar orqali boshqarilgan. Machit va mahallalar boshqaruvi xonlikdagi eng quyi mansabdor — oqsoqol qoʻl ostida boʻlgan. XX asr boshlarida Pitnak qalʼasida Dargʻonota va Sadvardan tashqari 17 ta machit, 4 ta mahalla boʻlgan[3]. A.Abdurasulov Xiva shahri machitlarining soni haqida quyidagicha yozadi: XX asr boshlarida jami 79 ta masjid mavjud boʻlgani va ularning faqat 65 tasida aholi yashagan[4].

Yuqorida koʻrsatilgan barcha mansabdorlar: inoqdan tortib oqsoqolgacha xazinadan oylik maosh olishmagan. Ular asosan oʻzlariga tegishli yerdan olingan foyda va ishlab chiqaruvchilardan olingan soliqning bir qismi evaziga hayot kechirishgan. Bu haqda Turkiston general—gubernatorligi devonxonasiga tegishli hujjatlarning birida shunay yozilgan: “...chorizm xonlikni bosib olgandan keyin... boshqaruv tizimi oldingidek saqlanib qoldi, beklar va boshqa hukumat vakillari... oʻzlarining xizmat mavqelarining mustahkamligiga ishonch boʻlmaganligi sababli faqat oʻzlarining foydalari haqidagina oʻylashdi, ...himoyadan butunlay mahrum boʻlgang turli xil soliq va majburiyatlar yuklatilgan aholining katta qismi ochlik va yoʻqchilik holatida edi”[5].

Ingliz olimi M.Xoldsvort oʻz asarida Xiva xonligining maʼmuriy tuzilishiga toʻxtaladi. “Xiva xonligi Buxoro va Qoʻqondan kuchli mahalliy va ajratuvchilik anʼanalariga asoslangan bekliklardan iborat emasligi bilan farq qilardi, tez-tez avtonom boʻlgan qoʻngʻirotlardan tashqari, ikkinchidan shaharlar kuchli mahalliy hokimiyatni namoyish etardi”. Haqiqatan ham, mahalliy adabiyotlarda yozilishicha, Xiva xonligi bekliklarga boʻlinmasdan idora etilgan. Xonlikning yer egaligi masalasi toʻgʻrisida esa, XX asr xorij tarixshunoslari bilan deyarli bir xil fikrga keladi: yer egaligi tadbirlari Buxoro va Qoʻqondagiga oʻxshash edi, “hadya yerlar xon tomonidan uning xizmatchilariga ulashilardi va ular juda ortiq boʻlgan barcha soliqlardan ozod qilinardi” [6].

Xiva xonligida idora tartib tamoillari, saroy qabul marosimlari, fuqoralarni qabul qilish tartiblari asrlar davomida sayqallanib, takomillashib borgan. XIX asrdan boshlab, taxtga munosabat masalasida oilaviy anʼanalar ustunligi toʻla namoyon boʻladi va bu holat odatiy holga aylanadi. Taxt merosxoʻri sifatida Xonning oʻgʻillari asosiy davogar boʻlib qola boshladi. Bunday odatning qaror topishida natijasida Xiva xonligida taxtga merosxoʻrlik masalasida oilaviy manfaatlarining sulola manfaatlaridan toʻla ustunlik qilganligini koʻramiz. Qoʻngʻirotlar sulolasi hukmronligi davrida joriy qilingan taxtga merosxoʻrlik tartibiga birmuncha qatʼiy amal qilingan. Lekin, shunga qaramasdan, baʼzi



tadqiqotchilarning fikricha, Xiva xonligida taxtga merosxoʻrlik masalasidagi davomiylik muayyan va aniq bir shaklga ega boʻla olmagan[7].

Xon saylash marosimida Kengashning ahamiyati rasmiy jihatdan yanada oshgan. Odatda, oldingi xon vafotidan soʻng “valiahd” Xon etib saylanar edi. Xon nomzodini koʻrsatishda inoq, mehtar, qushbegi va yasovulboshi katta rol oʻynaganlar. Lekin yuqori tabaqa aʼyonlari va xon urugʻlari tor doirada oʻtkaziladigan saylov avvaldan kelishib qoʻyilgan boʻlib, xon tayinlash rasmiy bir marosimdek boʻlgan. Odatga binoan yangi saylangan xon bir qator amaldorlarga sarpo ulashgan. Bu ularga bildirilgan ishonch ramzi hisoblangan.

Manbalarning dalolat berishicha “Xon qabuliga kiruvchilarni dastlab mehtar qabul qilib, ularning arzini eshitgan. Shundan soʻng arzchining daʼvosi jiddiyligidan kelib chiqib, uni Xon qabuliga kirishi yoki kirmasligi masalasi hal qilingan”[8].

“Mehtar va qushbegi kun boʻyi mahkamalarida hozir boʻlib, oʻz taxti idoralari ostidagi mahkamalardan kelgan ishlarni qabul qiladilar, xon tomonidan beriladigan, barcha farmoyishlar darhol shu joydan tarqatiladi”[9]. Xon hokimiyati oʻz faoliyatida, bir tomondan koʻp sonli oʻrta yer yegalari va ularning vakili boʻlgan oqsoqollarning Oliy kengashiga suyanardi. Xon saroyida oʻtkaziladigan marosimlar oʻzining qatʼiyligi va mustahkamligi bilan xonlikning hamma joyida tartib hukm surishi va hamda aʼyonlarning mansab va darajalariga qarab hurmat qilishini yana bir karra koʻrsatadi. Oʻsha zamonda saroyda mavjud boʻlgan marosimlar diqqatga sazovordir, chunki ular Xiva xonligida idora usulini ochiq oydin koʻrsatib berardi.

Xiva xonligida davlat boshqaruv tizimi, mavjud amal va unvonlar va ularning egalari haqida mustaqillik davri tadqiqotchilaridan M. Matniyozov, A. Sotliqov, Q. Munirov, Davlatyor Raxim, Shihnazar Matrasul, Sh. Vohidov, N. Polvonov, S. Soburovalarning tadqiqotlarida oʻz aksini topgan. Tadqiqotchi S. Soburova oʻzining nomzodlik dissertatsiyasida xonliklagi amal va unvonlarning toʻliq nomlarini, ularning maʼnosi, amaldorlarning shaxsi va ularga toʻlanadigan maosh xususida fikr yuritgan[10].

Umuman olganda, N. Polvonovning “Xiva xonligida mansabga qoʻyish tartibi” maqolasidagi fikriga qoʻshilgan holda shuni aytish mumkinki, Xiva xonlari tomonidan davlat lavozimlariga bilimli, ishining haqiqiy ustasi boʻlgan shaxslar tayinlangan boʻlib, bu kishilar xonlarga mamlakatda tinchlikni, osoyishtalikni saqlashda xizmat qilishgan[11].

Xivada 1857—1864-yillarda asirlikda saqlangan Eron generali Ismoil Mirpanjiy xotiralariga koʻra, “Har kimning xonga arzi boʻlsa, muayyan paytda, hech qanday qarshiliksiz uning huzuriga kira olardi. Xonga taalluqli har nima



bo'lsa, uning o'zi chuqur tekshirib ko'rib, hukm qiladi. Agar shariat bilan bog'liq ish bo'lsa, qoziga murojaat etadi. Mahallalardagi mayda-chuyda ishlarni esa zikr etilgan kichkina mullolar hal qiladi. Xon devonidan chiqadigan hukm va farmonlar qisqa, lo'nda va aniq bo'ladi". Xonga murojaat qilish uchun esa eshikog'aga uchrash kerak lozim edi. Eshikog'asini arzga kelgan har bir kishi oyboltasidan tanirdi. Ana shu qurol uning mansab alomati edi. Eshikog'asi fuqarolarning nima xususida kelganini surishtirib, agar arzo'ylar ko'p bo'lsa, navbat belgilar va osoyishtalikni saqlashni qa'tiy buyurardi. 1873-yilda Xivaga rus qo'shinlari bilan kelgan Solomanin degan astronom "qo'lida tayoq ushlab , Xiva xoni saroyida tartib o'rnatib yurgan bir cholni ko'rdim" deya yozgandi[12] . O'sha chol eshikog'asi bo'lgan.

Yasovulboshining vazifasi xonning farmoniga muvofiq askarini vaqtda urushga boshlab borish bo'lgan. Tinchlik vaqtlarida yasovulboshilar navbat bilan xon turli iltimoslarni qabul qilgan marosimlarda hozir bo'lganlar. Ma'lum bo'lishicha, xon huzuridagi rasmiy qabul marosimlarida yasovulboshilarning doimiy o'rinlari bo'lmas edi, lekin ular xon huzurida bo'ladigan tor kengashda mehtar, qushbegi va devonbegi bilan bir qatorda qatnashar edilar. M.Yo'ldoshev "Yasovulboshiga yasovullar, mirshablar, shotirlar, eshik oqolari itoat qilardi"[13], deb yozadi, lekin negadir mirshablarning bevosita rahbarlari dorug'alar to'g'risida ma'lumot bermaydi. Shahar va qal'alarning harbiy holati boshqaruvi dorug'alar qo'lida bo'lgan.

So'nggi jumladan ma'lum bo'ladiki, dorug'alarning raisi bo'lgan va yasovulboshilar u orqali boshqa dorug'alarga va mirshablarga murojaat qilgan bo'lsa kerak. Xonlikda ichki tartibni saqlab turish mirshablar zimmasida edi. Ular shahar bosh darvozalarida turib kelib-ketuvchilarni kuzatib turganlar. Bundan tashqari, safarbarlik xolatlarida askarlar bilan harbiy yurishlarda qatnashadigan mirshablar ham bo'lgan. Naqib - sayyidlar va xo'jalar uchun yuqori faxriy unvon edi. Naqib xonning eng yaqin maslahatchilaridan biri bo'lib, safarlarda unga hamroh bo'lardi. Naqib madrasani tugatgan kishi bo'lib, payg'ambar naslidan bo'lishi kerak edi. Rasmiy qabul marosimlarida naqib xonning so'l tomonida birinchi o'rinda o'tirgan[14].

Xiva xonligi davrida, mahalliy amaldorlar fuqarolarni odatda mahalliy jamoat tashkil etish orqali qabul qilishgan. Bu jamoatlar, odatda qishloqlarda yashovchi oilalar tomonidan tashkil etilgan edi. Bu jamoatlarda mahalliy amaldorlar, madaniyat va san'at taraqqiyoti, ta'lim muammolari, xonadonlar va yo'llar tuzish muammolari, suv ta'minoti va boshqa ko'plab muammolarni hal qilish uchun ishlardan javob berishgan edi.



Davlat lavozimlari haqida fikr yuritganda shuni ta’kidlash lozimki, “Sayid Islomxo’ja” risolasida davlat amaldorlarining avlodlari ham shu kasb-kor egalari bo’lganligi ta’kidlanadi. Jumladan, Xiva xoni Asfandiyorxonning bosh vaziri Sayid Islomxo’janing otasi Ibrohim xo’ja, keyin amakisi Sayid Abdullaxo’jalar Muhammad Radimxon II davrida vaziri a’zam lavozimida bo’lganlar[15].

Feruz vafotidan so’ng taxtga chiqqan Isfandiyorxon (1910-1918) o’zi uchun yangi uslubdagi Nurullaboy saroyini qurdirib, bu bog’dagi qurilishlarga nuqta qo’yadi. Yangi qurilgan qabulxona chet ellik (rossiyalik) mehmonlarni qabul qilish maqsadida qurilgan. Qabulxona 1906 – 1912-yillarda qurilgan, o’yma naqshi juda nafis qilib ishlangan va bronza rang bilan bo’yalgan. Xon saroyini Xivadagi xonlar qarorgohining yangi binolari Toshhovli saroyi va Nurullaboyda ko’rinishxonalar qurilishi qadimgi xonlar qasrini Ko’hna ark nomi bilan atalishiga sabab bo’lgan. Xonning qarorgohi – Arkda davlat hayotiga tegishli siyosiy, iqtisodiy, diniy va boshqa barcha masalalar hal etilgan. Arkda xon va uning oilasidan tashqari xonlikning butun bosh mahkamasi joylashgan. Ark oldidagi maydonda xonlikning har xil bayram tantanalari o’tkazilgan. Xon chiqishi marosimi o’tkazilgan, hukmdorning farmoni oliylari xalqqa o’qib eshittirilgan.

Xonlikdagi ijtimoiy tabaqalarni quyidagicha ko’rsatish mumkin:

1. Katta boylar, yer egalari siyosiy hokimiyatni o’z qo’liga olgan bo’lib, ular xon saroyidagi qushbegi, mextar kabi yuqori davlat mansablaridan tortib, viloyat hokimligi, bek, oqsoqollik mansablarigacha egallab olishgan.
2. Islom dini arboblari bo’lgan ulamolardan qozi va imomlar tayinlangan.
3. Savdogarlar va shahardagi o’ziga to’q oilalar o’rtahol tabaqalarni tashkil qilgan.
4. Quyi tabaqa dehqonlar, chorvadorlar, hunarmandlar va kosiblardan iborat bo’lgan.

Dehqonlar quyidagi tabaqalarga bo’lingan: o’z yeriga ega (mustaqil dehqonlar), yersiz (batrak, diyxon, koranda, chorikor), amlok, podsholik va vaqf yerlarini ijaraga olib ishlovchi qaram (bevatanlar, vaqfchilar) dehqonlarga ajratilardi.

XX asr boshlaridan 1914 yilgacha bo’lgan davr Xiva xonligi ijtimoiy — siyosiy hayotida katta o’zgarishlar davri bo’ldi. Muhammad Rahimxon II Xiva xonligi Rossiyaga qaram bo’lgach, bir tomondan chor hukumatiga sadoqat bilan xizmat qilgan bo’lsa, ikkinchi tomondan ruslarni yomon ko’rar edi. Shuning uchun ham Rossiya orqali kirib kelgan yangiliklarga qarshi bo’lmasa ham, ularni unchalik ko’p qo’llab — quvvatlamagan. U hukmronlik qilgan davrda



xonlikdagi asosiy boshqaruv ishlari Matmurod (Muhammad Murod) devonbegi qo‘l ostida bo‘lgan. Muhammad Rahimxon Matmurotni jasur, dovyurak, tadbirkorligi uchun o‘z hukmronligining dastlabki kunlaridayoq devonbegi lavozimiga tayinlagan. Rossiya bosqinidan keyin Sibirga surgin qilingan, 1880 yilda xon so‘rovi bilan surgundan ozod qilingan Muhammad Murod yana o‘z lavozimiga tiklanib, 1901 yilgacha, ya‘ni vafotiga qadar shu lavozimda ishlagan. Uning vafoti bilan Xiva xonligi siyosiy hayotida Said Islomxo‘ja va Asfandiyor to‘ra katta rol o‘ynay boshladilar. Chunki, 1891 yilda valiahd sifatida tanlangan Asfandiyor to‘ra bir necha bor jumladan, 1900 yilda otasi nomidan Petrburgga borib kelishi natijasida valiahdlik rutbasi tasdiqlangach, saroy amaldorlari orasida guruhbozlik vujudga kela boshladi. XX asr boshlarida xon va Asfandiyor to‘ra tarafdorlari o‘rtasida zimdan kurash avj ola bordi. Bu holatdan hatto Amudaryo bo‘limi boshlig‘i va podsho hukumati tashvishga tushib qoldi. Shuning uchun ham Xiva xonligini tutatish va uni Rossiya tarkibiga to‘la qo‘shib olish borasida baxs — munozaralar avj ola boshladi. Bu masala avval (1876—1877 yy.) ham ko‘tarilgan edi. 1908—1909 yillarga kelib xon saroyida yuzaga kelgan muhit natijasida yana muhokama qilinib, chor Rossiyasi tashqi ishlar vazirligida 1910 yilda Xiva xonligini Rossiya imperiyasi tarkibiga qo‘shishga tayyorlash uchun avval xonlikda qator islohotlar o‘tkazishga kelishib olindi. Shu sababli ham 1908 yil 1 iyulda Xiva xoni pul zarb qilishga ruxsat so‘rab, yozgan xatiga 1909 yil 30 iyuldagi Rossiya hukumatining javob xatida ruxsat berilmagan edi. Bu Xiva xonligi iqtisodiyotini Rossiyaga to‘la qaram qilish va unda o‘tkaziladigan islohotlar xarajatidan qutilish ko‘zda tutilganligini ko‘rsatadi[16].

Shu tariqa, Xiva xonligida saroy qabul tartiblarini, saroy marosimlari tarixini o‘rganish orqali o‘zbek davlatchiligida so‘nggi o‘rta asrlarga xos bo‘lgan bir qator an‘analarni, o‘ziga xosliklarni ko‘rish mumkin. Ularni o‘rganish bo‘yicha kelajakda olib boriladigan tadqiqotlar bu masalada yangi ma‘lumotlarni ilmiy doiraga kiritilishiga olib keladi. Bu esa o‘z navbatida o‘zbek davlatchiligi va davlat boshqaruviga, saroy qabul tartiblari va saroy marosimlariga xos yangi jihatlarni aniqlashtirilishda muhim o‘rin tutadi.

FAYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Сагдуллаев А., Аминов Б., Норкулов Н., Мавлонов Ў. Ўзбекистон тарихи: давлат ва жамият тараққиёти. – Тошкент: Академия, 2000. – Б. 241–242; Сагдуллаев А., Мавлонов Ў. Ўзбекистонда давлат бошқаруви тарихи. –



Тошкент: Академия, 2006. – Б. 126–127; Эшов Б. Ўзбекистонда давлат ва маҳаллий бошқарув тарихи. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2012. – Б. 395–396

2. Қўшжонов О., Полвонов Н. Хоразмдаги ижтимоий-сиёсий жараёнлар ва ҳаракатлар (XIX аср иккинчи ярми XX аср биринчи чораги). Тошкент.: 2007. В -13.

3. Қўшжонов О., Полвонов Н. Хоразмдаги ижтимоий-сиёсий жараёнлар ва ҳаракатлар (XIX аср иккинчи ярми XX аср биринчи чораги). Тошкент.: 2007. В -13.

4. Abdurasulov A. Xiva (tarixiy-etnografik ocherklar).-T.:1997.- В. 24-25.

5. Қўшжонов О., Полвонов Н. Хоразмдаги ижтимоий-сиёсий жараёнлар ва ҳаракатлар (XIX аср иккинчи ярми XX аср биринчи чораги). Тошкент.: 2007. В -13.

6. Holdsworth M. Turkestan in the nineteenth century. – Oxford, 1959.-p.9

7. Сағдуллаев А., Мавлонов Ў. Ўзбекистонда давлат бошқаруви тарихи. – Тошкент: Академия, 2006. – Б. 126–127; Эшов Б. Ўзбекистонда давлат ва маҳаллий бошқарув тарихи. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2012. – Б. 395–396

8. Holdsworth M. Turkestan in the nineteenth century. – Oxford, 1959.-p.9

9. Сафаров Б. Хоразм тарихи. – Тошкент, 1957. ЎРШИ-1, № 10231, – Б. 12-16

10. Дилмурод Бобожонов, Моксудбек Абдурасулов. Фирдавсмонанд шаҳар. Хива-2008 йил. Б 27.

11. Полвонов Н.Т. Хива хонлигида давлат мансабларига тайинлаш тартиби // Жамият ва бошқарув - Т., 2009. - № 4. - Б. 48-49.

12. “Военный сборник”, 1874 йил, 3-сон

13. Йўлдошев М. Хива хонлигида феодал ер эгаллиги ва давлат тузилиши. –Т., 1959. –Б.286.

14. Бартольд В.В. Церемония при дворе узбекских ханов в XVIII в.// Записки РГО –С-ПБ.1909. –С.301

15. Садуллаев А., Сотлиқов А., Абдуллаев О. Сайид Исломхўжа (сиёсий. маданий-маърифий фаолияти). - Тошкент, 2005. - Б. 10.

16. Polvonov N.T. Xorazmdagi ijtimoiy harakatlar va siyosiy partiyalar tarixi (1900-1924 yillar): Tarix fanlari nomzodi ... diss. avtoreferati. – Toshkent, 2005. – В. 13-15.

